



**TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI  
QARORI**

---



---

2023 - yil 18 - may

144-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

**Toshkent shahar hokimining 2023-yil 4-maydagi 277-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi  
to‘grisida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-apreldagi 204-F sonli farmoyishi hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 4-maydagi 277-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

**QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18- apreldagi 204-F sonli farmoyishi ijrosi haqida” 2023-yil 4-maydagi 277-14-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur farmoyishiga muvofiq:

2023-yilda adabiyot, madaniyat va san’at, ilm-fan sohalari atoqli namoyandalarining tavallud sanalarini munosib nishonlash va ularning faoliyatini keng targ‘ib etish dasturi;

adabiyot, madaniyat va san’at, ilm-fan sohalari atoqli namoyandalarining tavallud sanalarini nishonlash bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Toshkent shahar hokimining ushbu qarori bilan:

2023-yilda adabiyot, madaniyat va san’at, ilm-fan sohalari atoqli namoyandalarining tavallud sanalarini munosib nishonlash va ularning faoliyatini keng targ‘ib etish bo‘yicha Toshkent shahar dasturi tasdiqlanganligi;

Dasturda belgilangan tadbirlarni o‘tkazishga mas’ul bo‘lgan Toshkent shahar hokimi o‘ribosari, bosh boshqarma, boshqarma va tashkilotlarning rahbarlari ushbu tadbirlarni yuqori tashkiliy va yuksak badiiy saviyada o‘tkazish uchun shaxsan mas’ul etib belgilanganligi inobatga olinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘ribosari M.Kamilov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**